

ILK UYG'ONISH DAVRIDA O'RTA OSIYO ME'MORCHILIGINING RIVOJLANISHI

Ismonaliyeva Marhabo Sdiqjon qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi E-mail:

ismonaliyevamarhabo90@gmail.com

Madraximov Zoxid Sharofovich

Ilmiy rahbar: Namangan davlat universiteti dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'rta Osiyoning ilk uyg'onish davri (IX–XII asrlar) me'morchiligi tarixiy, madaniy va san'atshunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan. Bu davrda hududda ilm-fan, adabiyot va san'at bilan bir qatorda me'morchilik sohasida ham yuksalish kuzatilgani ta'kidlangan. Somoniylar davrida bunyod etilgan obidalar orqali o'ziga xos me'moriy uslub va bezak elementlari shakllangani ko'rsatib o'tilgan. Maqolada Ismoil Somoniy maqbarasi, Mir Said Bahrom maqbarasi va Raboti Malik karvonsaroyi misolida bu davr me'morchiligining estetik qiyofasi tahlil qilingan. Shuningdek, bu obidalar orqali xalqning diniy dunyoqarashi, hayot tarzi va qadriyatlarini qanday ifodalanganiga e'tibor qaratilgan. Me'moriy shakl, gumbazlar, koshin bezaklar va yozuvlar kabi elementlar o'sha davrning san'at darajasini ko'rsatib beradi. Maqola yakunida tarixiy me'morchilik merosining bugungi arxitektura rivojiga ta'siri va uning madaniy ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация: *В данной статье с исторической, культурной и искусствоведческой точек зрения освещается архитектура периода раннего Возрождения Средней Азии (IX–XII века). Подчёркивается, что в это время наряду с развитием науки, литературы и искусства наблюдался и расцвет архитектуры. На примере памятников, построенных в эпоху Саманидов, показано формирование самобытного архитектурного стиля и декоративных элементов. Эстетический облик архитектуры этого периода проанализирован на примерах мавзолея Исмаила Самани, мавзолея Мир Саид Бахрома и караван-сарая Рабат-и-Малик. Также уделяется внимание тому, как через эти памятники отражались религиозные взгляды, образ жизни и ценности народа. Такие элементы, как архитектурные формы, купола, керамическая облицовка и надписи, демонстрируют высокий уровень искусства того времени. В заключение статьи рассматривается влияние исторического архитектурного наследия на современное развитие архитектуры и его культурное значение.*

Annotation: *This article explores the architecture of the early Renaissance period in Central Asia (9th–12th centuries) from historical, cultural, and art-historical perspectives. It emphasizes the flourishing of architecture alongside the development of science, literature, and the arts during this era. The formation of a distinctive architectural style and decorative elements is demonstrated through monuments built during the Samanid period. The aesthetic character of the architecture of this time is analyzed using examples such as the Mausoleum of Ismail Samani, the Mausoleum of Mir Said Bahrom, and the*

Rabati Malik caravanserai. Special attention is given to how these structures reflect the religious worldview, lifestyle, and values of the people. Architectural forms, domes, tile decorations, and inscriptions illustrate the high level of artistic achievement of the time. In conclusion, the article discusses the influence of this historical architectural heritage on the development of modern architecture and its cultural significance.

Kalit so'zlar: arablar istilosi, shahriston, rabot, girih san'ati, girih, nasx yozuvi, Somoniylar, Buxoro, Somoniylar maqbarasi, Mir Said Bahrom maqbarasi, Raboti Malik karvonsaroy.

Ключевые слова: арабское завоевание, шахристан, рабат, искусство гирих, гирих, письмо насх, Саманиды, Бухара, мавзолей Саманидов, мавзолей Мир Саид Бахрома, караван-сарай Рабат-и-Малик.

Keywords: Arab conquest, shahristan, rabat, girih art, girih, Naskh script, Samanids, Bukhara, Samanid Mausoleum, Mir Said Bahrom Mausoleum, Rabati Malik caravanserai.

IX – XII asrlarda O'rta Osiyo tarixida ilm-fan, san'at va madaniyatning yangi bosqichi ilk uyg'onish davri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda shaharsozlik, hunarmandchilik bilan birga birga, me'morchilik san'ati ham yuksak taraqqiyotga erishdi. Ayniqsa, diniy va fuqarolik binolarining be'zagi, ularning shakl va uslubi oziga xoslik kasb eta boshladi. Arablar istilo qilgan yerlarida dastlab masjidlar qurishgan, qadimiy ibodatxonalarni masjidlarga aylantirishga e'tibor berganlar. Shu asosda me'morchilik va binokorlikda jonlanish boshlangan Shaharlar shahriston va rabotlarga ajratilib qurila boshlangan. Qurilish texnikasi takomillashgan binolar IX – X asrlarda asosan pishiq gishtdan bunyod etilgan. Monumental binolarda toq-gumbaz konstruksiyalari keng qo'llanilgan. Islom dini tirik mavjudotni tasvirlashni man etganligi tasviriy san'atning o'sishiga keng imkon bermagan, biroq naqqoshlik rivoj topa boshlagan. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar naqsh bilan bezatila boshlangan [1. – B. 91.]. Shu tariqa arablar bosqini natijasida islom dini keng yoyilganidan so'ng, binolar bezatishda tirik mavjudotlar emas, naqshlar, turli rangli va gulli bezaklardan foydalanilgan.

IX – X asrlardan girih• san'ati yuksalgan, arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarilgan. X asrdan kufiy•, XI – XII asrlardan nasx yozuvi• me'morchilikda ko'p ishlatila boshlagan. IX – XI asrlarda Termizda Qirqqiz saroyi, Navoiyda Mirsaid Bahrom maqbarasi, Sulton Saodat ansambli, Malik karvon saroyining saqlangan qismlari me'morchilikning yuksak darajaga ko'tarilganini, inshootlar badiiy hunarmandlar tomonidan jozibador bezatilganligini ko'rsatadi. Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan bo'lsa, X asrdan boshlab saroylar shahar tarkibida barpo etilgan. Masalan, Buxoroda qal'a oldida, Urganchda shaharning bosh maydonida, Samarqandda registon maydonida. Saroy me'morchiligida yog'och konstruksiyalardan ko'p foydalanilgan. XI – XII asrlarda Samarqand,

Buxoro, Urganch, Termiz va boshqa yirik shaharlar hunarmandchilik markazlari sifatida shuhrat qozongan.

865 – 999-yillarda hukmronlik qilgan Somoniylar sulolasi davrida amaliy-bezak san'ati, ayniqsa kulollik, shishasozlik, yog'och o'ymakorligi yaxshi suratlar bilan rivojlangan. Monumental me'morchilikka katta e'tibor berilgan, turar-joylar, hunarmandlarning ustaxonalari, saroylar, ma'muriy binolar, savdo rastalari, hammom, masjid, maqbara, minora, madrasalar qurilgan. Qurilishda, asosan, pishiq g'ishtdan foydalanilgan. Ba'zan bino devorlari xom g'ishtdan, tomi – gumbazi tashqi tomondan pishiq g'ishtdan ishlangan, xom g'ishtdan ishlangan devor pishiq g'isht bilan qoplangan va mustahkamlangan [1. – B. 93.]. Bundan ko'rinib turibdiki, Somoniy hukmdorlar me'morchilikka katta e'tibor qaratganlar va o'sha davr me'morchilik san'ati rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Mo'g'ullar istilosi oqibatida ko'pgina shaharlar (ayniqsa Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch kabi yirik shaharlar) vayron bo'lgan. Mo'g'ullar bosqini tasviriy san'atga ham, arxitektura, amaliy-bezak san'ati rivojiga ham to'sqinlik qilgan [1. – B. 94.]. Bir muddat mo'g'ullar istilosi natijasida, O'rta Osiyoda rivojlanish suratlari keskin sekinlashgan. Rivojlanayotgan Movarounnahr shaharlari inqirozga yuz tuta boshlagan.

Somoniylar davlatining poytaxti Buxoroda katta qurilish ishlari olib birilgan. Kengaygan shahar mudofaa devori bilan mustahkamlanib, 11 darvoza orqali shaharga kirish yo'llari belgilangan. Shaharda va undan tashqarida jamoat va turar joylar ko'plab qurilgan. Bu qurilishlar asta o'rta asr shahar me'morchilik qiyofasini belgilay boshlagan. Qurilishda xom g'isht, paxsadan tashqari pishiq g'isht va alebastr qorishmalaridan foydalanilgan. Uchli arka va toqlar ham me'morchilik san'ati o'zgarishlarni belgilagan. Bu davrga kelib turar joylar qurilishida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan [2. – B. 72.].

Rejalashtirish asosida qurilgan turar joy binolari kichik hovlialar atrofida qurilgan. Shahardan tashqaridagi turar joy binolari qo'rg'on tipida bo'lib baland tepalik ustiga qurilgan. Tashqari devorlari esa gafrili bo'lgan. Somoniylar davlatining muhim markazlaridan bo'lgan Marvda shunday qal'a qoldiqlari saqlanib qolgan. Bu davrda qurilgan binolar to'rtburchak, kvadrat shaklida bo'lib tepasi ravoqli yoki gumbazli bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra shu davrda qurilgan qasrlar ikki qavatli bo'lgan.

Bu davrga kelib qurish texnikasi mukammallashdi, qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi me'morchilikning murakkab kompozitsiyalarini yaratish imkoniyatini bergan. Egri ravoqli tomlar bilan bir qatorda, gumbazli binolar qurilishi ham keng yo'lga qo'yila boshlangan. Pishiq g'ishtlarni turlicha terish natijasida bino devorlarining o'ziga xos bezagini yaratish tendensiyasi ortgan. Arka va yarmarkalar me'morchilikda eshik, darcha, tokch va tahmonlarda ishlatila boshlandiki, bular ham shu davr binolarining o'ziga xos ko'rinishida muhim rol o'ynagan. Bu davrda naqshinkor mehmonxonalar, ko'rkam istirohat bog'lari hamda antiqa hovuzlar bunyod etilgan. Shu davrlarda, hatto islom dini bilan bog'liq bo'lgan gumbazli machitlar bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir.

Bu davrining ajoyib me'moriy qurilmasi bo'lgan Somoniylar maqbarasi haqli ravishda jahon me'morlik san'atining nodir yodgorligi hisoblanadi. Bu yodgorlik dastlab o'zining soddaligi va tuzilishining aniqligi, nisbatlarining mutanosibligi va me'morlik shakl bezagining bir-biri bilan nihoyatda nafis uyg'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi [2. – B. 73.]. Maqbara asosi kvadrat bo'lib, uning xajmi katta emas (7,20x7,20 m.), to'rt tomonida nayzasimon arkali eshik mavjud. Maqbara tashqi tomondan tepaga bir oz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning tashqi devor yuzasi pishiq g'ishtning turlicha tahlanishi hisobiga badiiylashtirilgan, g'ishtning yon, goh burchak qilib qo'yilishi yuzada yorug' yorug' soya o'yinini oshirib, uning xushmanzarali bo'lishini ta'minlagan. X asr oxiri – XI asr boshlarida qurilgan Mir Said Bahrom maqbarasi ham kub-gumbazdan tashkil topgan. Raboti Malik karvon saroyi XI asrda barpo etilgan. Bu binoning chekkasida minorasi pishiq g'isht bilan kafelga o'xshatib pardoqlangan. Devor old tomon devorini yarim aylana ustun va arkali ishlanishi hamsda peshtoqli darvoza qurilishi keyingi Movarounnahr me'morchiligi rivojida muhim rol o'ynaydi [2. – B. 74.]. Bu davrda har bir me'moriy unshoatlar qurilishiga yangi yondashishga harakat qilishgan va shu tariqa yangicha me'moriy uslublar paydo bo'la boshlagan. Bunga islom dini ham ham katta ta'sir ko'rsatgan.

O'rta Osiyodagi ilk uyg'onish davri me'morchiligi o'z zamonasining yuksak ilmiy, madaniy va estetik qarashlarini mujassam etgan. Bu davrda yaratilgan me'moriy obidalar nafaqat diniy va fuqarolik ehtiyojlarga xizmat qilgan, balki o'zining go'zalligi va noyob uslubiy xususiyatlari bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. Ushbu meros bugun ham jahon miqyosida o'rganilib, qadrlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vaxitov M. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 300 b.
2. Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати еарихи. – Тошкент, 2007. – 236 б.
3. Garih / <https://uz.wikipedia.org/wiki/Garih>
4. Kufiy / <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kufiy>
5. Nasx (uslub) / [https://uz.wikipedia.org/wiki/Nasx_\(uslub\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Nasx_(uslub))